O‘SMIR SHAXSI SHAKLLANISHIGA IJTIMOIY MUHIT TA’SIRI MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Rahmonova Oyshaxon Oribovna
Qo‘qon davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: raxmonovaoyshaxon27@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘smir shaxsining shakllanishiga ijtimoiy muhit ta’siri mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. O‘smirlik davrida oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mahalla, ommaviy axborot vositalari va raqamli muhit bilan o‘zaro munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvi hamda o‘zini anglash jarayonlari bilan bog‘liq. Maqolada ijtimoiy muhitning asosiy tarkibiy qismlari, o‘smirlik davrining ayrim psixologik xususiyatlari va mazkur mavzuni oliy ta’limda o‘qitishda qo‘llash mumkin bo‘lgan interfaol metodlar yoritiladi. “Aqliy hujum”, muammoli vaziyat, keys-stadi, rolli o‘yin va munozara metodlaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘smir shaxsi, ijtimoiy muhit, shaxs shakllanishi, o‘smirlik davri, interfaol metodlar, psixologik rivojlanish, ijtimoiylashuv, ta’lim jarayoni, keys-stadi, rolli o‘yin, milliy qadriyatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’lim va yoshlar masalalariga bag‘ishlangan nutq va murojaatlarida yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda mustaqil va mantiqiy fikrlash, tashabbuskorlik hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan. Xususan, 2023-yil 11-sentyabrda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini qurishdek ezgu maqsad sari tashlangan muhim qadam bo‘ldi. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi beshta yo‘nalish, yuzta asosiy maqsadni birlashtirgan mazkur normativ-huquqiy hujjatda mamlakatimiz kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim tizimi islohotlariga asosiy e’tibor qaratilgan[1]

Psixologiya fanlarini, xususan, o‘smir shaxsi shakllanishiga ijtimoiy muhit ta’siri bilan bog‘liq mavzularni o‘qitishda an’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.Interfaol metodlar ta’lim oluvchilarning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, “Aqliy hujum”, “Muammoli vaziyat”, “Keys-stadi”,

[1] **“O‘zbekiston-2030” strategiyasida ta’lim-tarbiya masalalari 29 mart 2024, 13:24** O‘ral Axmedov, Termiz muhandislik-texnologiya instituti rektori

“Rolli o‘yin” kabi metodlardan foydalanish orqali o‘smir shaxsiga ijtimoiy muhitning ta’siri bilan bog‘liq turli psixologik vaziyatlarni tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash hamda muqobil yechimlarni ishlab chiqish mumkin.

O‘smir shaxsining shakllanishiga o‘smir yashaydigan va ta’lim oladigan ijtimoiy muhit katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit tarkibiga oila, maktab yoki ta’lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mahalla, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli muhit kiradi.

Zamonaviy psixologiya va sotsiologiya fanlari shuni isbotladiki, inson yolg'iz o'zi rivojlanmaydi. Uning shaxsiy sifatlari, intellektual qobiliyatlari, ruhiy holati va ijtimoiy ko'nikmalari atrofdagi muhit bilan doimiy o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. Shuning uchun ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishiga ta'sirini o'rganish pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi[2]

O‘smirlik 10-11 Yoshlardan 14-15 Yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Sharq mutafakkirlaridan Ibn Sino , Forobiy , Kaykovus , Imom G‘azzoliy fikrlarida o‘smirlik davrining asosiy mezonlarini quyidagicha ko`rish mumkin:

Olim	O‘smirlik davriga yondashuvi	Asosiy tavsiyasi
Ibn Sino	Jismoniy va fiziologik o‘zgarishlar davri	Qobiliyatiga qarab kasb-hunarga yo‘naltirish
Forobiy	Aqliy ulg‘ayish va ijtimoiy moslashuv bosqichi	Yaxshi muhit yaratish va adolatni o‘rgatish
Kaykovus	Amaliy hayotga va mustaqillikka o‘tish davri	Do‘st tanlashda ehtiyotkorlik va otadan o‘rnak olish
Imom G‘azzoliy	Ruhiy-axloqiy shakllanish va nafs tarbiyasi	Hayo va uyat hissini rivojlantirish, din va odob ilmi

O‘smirlik davri **«o‘tish *davri», »krizis davr», «qiyin davr*»** kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu Yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘smirda boshqalarning va o‘zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo‘ladi. O‘smirga o‘zining o‘qishi, mehnati va xatti- harakatlariga mas'uliyat bilan qarash jamoat topshiriqlarini aniq bajarish, bilim va ko‘nikmalarni egallashda reja bo‘yicha sistemali ravishda ko‘tarila borish kabi avvalgidan ko‘ra jiddiyroq talab quyiladi[3]

Bugungi kunda ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, darslarni oqitishning faol usullarini qo‗llab tashkil etish muammolarining yechimiga qo`yilgan talab tobora ortib bormoqda. AQSh va Yevropa mamlakatlarida «ta‘lim

[2] **IJTIMOIY MUHITNING SHAXS RIVOJLANISHIGA TA'SIRI *«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»2025*Aldjanova Guljahan Amangeldievna** docent Pedagogika fanlari boyincha falsafa doktori,PhD

[3] O‘SMIRLIK DAVRIDA XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI. (2024). *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, *1*(4), 535-536. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.universaljurnal.74231

texnologiyasi» sifatida e‘tirof etilgan nazariya bo`lib, uning yaratilishi to`g`risida ma‘lumot beruvchi manbalarni o`rganish natijalari shuni ko`rsatdiki, ta‘lim tizimini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish g`oyasi o`tgan asrning boshlarida g`rbiy Yevropa hamda AQShda ta‘lim tizimini isloh qilish, ta‘lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta‘minlash va bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirishga urinish natijasida vujudga kelgan. Bu sohadagi mavjud adabiyotlarda «ta‘lim texnikasi» tushunchasi o`quv mashg`ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko`maklashuvchi usul, vositalar yig`indisi deya talqin etiladi. Shu narsa ma‘lumki, an‘anaviy ta‘lim mazmuninig asosi shundan iboratki, pedagog bu jarayondagi avtoritar mavqei, ta‘lim jarayoni o`quvchilarning sust faoliyati asosiga qurilgan bo`lib, dars uchun ajratilgan vaqtning asosiy qismi pedagoglar tomonidan muhim nazariy ma‘lumotlarni bayon etishga sarflanar, o`quvchilarning faolligini ta‘minlashga zaruriyat sezilmasligini ifoda etardi. O`tgan asrning 60-yillarida ta‘lim faoliyatini avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g`oyalariga muvofiq tashkil etish tashabbusi ko`tarildi.[4]

Ta‘lim texnologiyasi iborasining ma‘nosi -(inglizcha ―An educational technology) darslarni yuksak mahorat bilan san‘at darajasida tashkil etish to`g`risida ma‘lumot beruvchi fan, ta‘limot demakdir[5]

Interfaol ta’lim – bu o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan o‘qitish usulidir. Bu usul o‘quvchilarni passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularning ijodiy fikrlash, muammolarni yechish va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar quyidagi afzalliklarga ega: Uning shaxs sifatida shakllanishida **oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mahalla, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar, milliy-madaniy qadriyatlar hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar** muhim o‘rin tutadi. Mazkur mavzuni oliy ta’lim muassasasida o‘qitishda faqat ma’ruza va tayyor nazariy ma’lumotlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil qilishga, o‘z nuqtayi nazarini asoslashga va amaliy vaziyatlarni psixologik jihatdan baholashga yo‘naltiruvchi **interfaol metodlardan foydalanish** maqsadga muvofiqdir.

“Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, “Rolli o‘yin”, “Munozara” , “Nilufar guli” metodlari o‘smir shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashda samarali usullardan hisoblanadi.

O‘smir shaxsi shakllanishiga ijtimoiy muhit ta’siri va ushbu jarayonni ta’lim jarayonida samarali yoritish masalalarini o‘rganish natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘smirlik davri shaxsning jadal psixologik va ijtimoiy rivojlanishi bilan tavsiflanadigan muhim yosh davrlaridan biridir. O‘zbek oilalariga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, o‘zaro hamjihatlik, oilaviy mas’uliyat, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlik kabi qadriyatlarning o‘smir tarbiyasidagi o‘rnini ilmiy asosda

[4] DARS MASHG‗ULOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHIbragimov Xayrulla Hamdamovich f.f.f.d. (PhD)
[5] Ziyomuhammedov B. Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –Toshkent, Chinoz ENK, 2002.

yoritish ta’lim mazmunining hayotiyligi va amaliy ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar bilan bir qatorda o‘smirning shaxsiy fikri, mustaqilligi, individual qobiliyatlari va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash muhim pedagogik-psixologik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov F. I., Xalilova N. I. *Umumiy psixologiya.* – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 360 b.
2. Xolnazarova M. *Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya.* – Toshkent, 2020.
3. Nishonova Z. T., Alimova G. K. *Psixologik xizmat.* – Toshkent, 2019.
4. Ismoilova N. Z. *Psixologik trening asoslari.* – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
5. Ikromova S. A. *O‘smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari.* – Toshkent, 2024.
6. Axmedov O‘. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim-tarbiya masalalari. – 2024-yil 29-mart.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – https://lex.uz/docs/-5013007
8. Topildiyev V. R. *Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.* – B. 10–15.
9. Aldjanova G. A. Ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishiga ta’siri. – *Modern Science and Research*, 2025.
10. Hall G. S. *Adolescence: Its Psychology and Its Relations to Physiology, Anthropology, Sociology, Sex, Crime, Religion, and Education.* – New York: D. Appleton, 1904.
11. Erikson E. H. *Identity: Youth and Crisis.* – New York: W. W. Norton & Company, 1968.
12. Yusupova Sh. A. O‘smirlar ruhiyatidagi psixologik o‘zgarishlar. – *Tadqiqotlar: jahon ilmiy-metodik jurnali.*
13. Muminjonova Z. N. O‘smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. – Andijon davlat pedagogika instituti.
14. Asilova S. X. O‘smirlarda salbiy xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari. – Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrasi.
15. Xolnazarova M. X., Muxliboyev M. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: o‘quv qo‘llanma.* – Guliston: Guliston davlat universiteti, 2016.
16. O‘smirlik davrida xulq-atvor xususiyatlari. – *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2024,1(4),535–536. – https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.universaljurnal.74231
17. Ibragimov X. H. Dars mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish